

FARZAND TARBIYASIDA OILANING MUHIM O‘RNI, VAZIFALARI VA MAS’ULIYATI**Tajimuratova Ziyuar***Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tumani 13-maktab psixologi***Primbetova Periyzat***Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tumani 2-maktab psixologi***Turimbetova Sveta***Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tumani 45-maktab psixologi***ANNOTATSIYA**

Bolalarga ta’lim-tarbiya berish psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, bolalar psixologiyasi sohalarining dolzarb muammolaridan biriga aylanib borayotganligi shubhasizdir.

***Kalit so‘zlar:** Oila muloqot, ilk bolalik va maktabgacha yosh, shakllantirish, shaxsiy muvaffaqiyat, tarkib toptirish, ichki va tashqi ta’sirlar, omillar, ota-onalik.*

KIRISH

Farzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas’uliyatli vazifalaridan biridir. Bu borada ular har qadamda mas’uliyat bilan yondashmog‘i lozim. Kelajakdagi yo‘li ravon bo‘lishini istagan har bir ota-onalar sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo‘lgan farzandlarini ulg‘aytirish uchun sarflashlari lozim. Farzand kamoloti uchun sarflangan har bir daqiqa ertangi farovon hayot uchun tamal toshi bo‘ladi desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Agar ota-ona vaqtida farzandiga e’tibor qaratmasa, uning kelajagi uchun qayg‘urmasa, keyinchalik afsus – nadomat bilan yashashi muqarrar. Bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O’sha vaqtda esa muammolarni hal qilishga kech bo‘lishi mumkin. Shunday ekan, farzandining taqdiri uchun e’tiborli bo‘lib, uning xulqi, tarbiyasiga va ilm olishiga befarq bo‘lmaslik lozim.

Xalqimizda “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan naql bejizga aytilmagan. Har bir ota-ona o‘z farzandi uchun ko‘zgudir. Ularning muomala va munosabati, o‘zini tutishi farzandiga bo‘lgan e’tibori alohida ahamiyatga ega. Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy farzand tarbiyasi xususida shunday deydi: “Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Qatrani sadaf tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi. Tarbiyaning yana biri bo‘laga ilm-u adab o‘rgatish uchun muallim chaqirishdir. O‘g‘ling bilimsizligicha

qolib ketsa, ajab kamchilik bo'ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi zarardir". Bu fikrlar orqali qattiqqo'llik va shafqatning me'yorda bo'lishini bilish mumkin.

Mirzo Ulug'bekning oila muhitini yaxshilash, sog'lom tarbiya berish haqida quyidagi qarashlari mavjud. Bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit, ya'ni oila muhim o'rin egallaydi. Oilada otalar bilimli bo'lishini, tarbiya berishda ota-onaning o'zi o'rnak va hayotiy misol bo'lishiga farzandi guvoh bo'lishi eng ko'p samara berishi ta'kidlangan.

Jadid adabiyotining namoyandasi Abdurauf Fitrat jamiyat rivoji va yurt ravnaqi farovonligida oilaning o'rni xususida fikr yuritib, "Oila" asarida shunday mulohazalar bildiradi: "Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik ana shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi".

Hozirgi kunda oila davrasida bilim olish va kitob o'qish borasida suhbat qilish, farzandining ilm olishi xususida suhbatlar kamayib bormoqda. Farzandlarning ham o'z vaqtini telefon bilan o'tkazishi keng tus olyapti. Bunda me'yordan oshib ketish holatlari ko'p uchramoqda. Farzandni kitob o'qishga bo'lgan muhabbatini oshirish uchun astoydil harakat qilinsa, bolada kitob o'qishga ko'nikma hosil bo'ladi. Bilim olishga bo'lgan intilish yanada kuchayadi.

Oilada bolaning muntazam kitob o'qishini rivojlantirish uchun ota-ona astoydil harakat qilmog'i lozim.

Sharq mutafakkirlari yetuk insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligi haqida so'z yuritganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning "Al-Adab al-Mufrad", Kaykovusning "Qobusnoma", Shayx Sa'diyning "Guliston", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlarini misol qilib keltirish mumkin.

Bola tarbiyasida ota-onaning bir-biriga munosabati muhim sanaladi. Farzandning tarbiyasini faqat onaga tashlab qo'yish to'g'ri emas. Bu borada otaning ham o'rni beqiyosdir. Hayotda og'il ko'proq otaga qarab ergashadi. Otaning samimiyligi, hurmati va yaxshiligi farzandga kuch-quvvat bo'ladi. Oilaning asosiy tirgagi bo'lgan ota hayotning mashaqqatlarini kechib, o'zining bukulmas irodasi, adolatparvarligi, hayot sinovlariga bardoshlilik bilan ajralib turuvchi buyuk shaxs sifatida gavdalanadi. Ota oilada o'z farzandlariga yurish-turishda, nutq odobida, o'zaro muomala madaniyatida to'g'rilik, halollik, samimiylig yuzasidan namuna bo'la oladi. Oilada samimiylig, bir-biriga bo'lgan mehr va hurmat yuqori bo'lsa, farzandning o'sib ulg'ayishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Alisher Navoiy tarbiyaning yana bir ko'rinishi ota-onani hurmat qilish ekanligini farzandlarga uqtiradi: "Otang oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi. Ikki dunyong obod

bo'lishini istasang, shu ikki odam roziligini ol. Tun-u kuningga nur berib turganning birisini oy deb bil, ikkinchisini quyosh".

Oilada ma'naviy-ruhiy muhit, bola tarbiyasida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Oila sog'lom, yetuk farzandni ulg'aytirib kamol toptirishda mas'uldir. Farzandni sog'lom, yetuk, bilimli, shijoatli qilib voyaga yetkazish oilaga, ota-onaga bog'liqdir.

Kelajagi buyuk davlatimizning poydevori mustahkamligini ta'minlash maqsadida hukumatimiz tomonidan sog'lom avlodni tarbiyalash, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol insonlarni voyaga etkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturida ham ota-onalarning pedagogik madaniyatini, farzand tarbiyasi borasidagi burch va mas'uliyatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilga. Bola shaxsini shakllantirish, oilaviy munosabatlar, ota-onalar bilan farzandlarning o'zaro munosabatlari muammolarini o'rganish doimo insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida keng ilmiy jamoatchilik diqqat e'tiborida bo'lgan.

Bolalarga ta'lim-tarbiya berishda pedagogika va psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, bolalar psixologiyasi fanlarining dolzarb muammolaridan biriga aylanib borayotganligi shubhasizdir. Zotan, kelajagi buyuk davlatni bunyodga keltirish uchun har qanday davlatning fuqarosi dastlab oilada va so'ngra maktabgacha ta'lim muassasida mukammal tarbiyalanishi, shaxs sifatida to'laqonli shakllanish imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda insonning shaxs sifatida shakllanishida uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblangan ta'lim muassasasi muhim o'rin tutadi. Ilk bolalik va maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlarini ilmiy, nazariy jihatlarini o'rganish oily pedagogik ta'limda muhim amliy ahamiyat kasb etadi. Jamiyat – bu insonlar, shu jumladan bolalar muammosi majmuidir.

Demokratik jamiyatning rivojlanishi va ma'naviy salohiyati ko'p jixatdan ana shu bolalarga beriladigan psixologik, tarbiyaviy ta'lim mazmuniga bog'liq. Har bir bola jamiyatda yashar ekan, u unda o'ziga xos o'rin va mustaqil mavqe egallashga intiladi, shuning uchun u o'ziga xos intilish, layoqat va faollik, intellektual mehnat namunalarini namoyish etadi. Bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hamda har bir shaxsning jamiyatdagi o'rni va uning turlicha ijtimoiy munosabatlari tabiatini o'rganuvchi qator pedagogic fanlar mavjud bo'lib, ularning orasida psixologiya alohida o'rin egallaydi. Oila – bu jamiyatning bir b o'g'inidir. Shunday ekan bola tarbiyasida oilaning tutgan o'rni katta ahamiyatga ega. Agar farzand yoshligidan to'g'ri tarbiyalansa, kelajakda jamiyat uchun munosib shaxs bo'lib yetishadi. Albatta bunga

ota-onaning o'zini katta, o'z farzandiga bo'lgan munosabati, kattalarga bo'lgan hurmati, ota-onaning bir biriga bo'lgan hurmati alohida ahamiyatga ega.

Agar yosh bolaning oldida yolg'on gapirsa, bilamizki, bolalar kichikligida juda ham qiziquvchan va ko'p savol beradigan bo'lishadi agarda ular so'ragan narsalarda yolg'on ishlatsak ularda shu narsaga nisbatta boshqacha fikr paydo bo'lib qoladi. Bola shu narsaga asta sekinlik bilan ko'nikib boradi va unga siz o'rgatmasangiz ham ba'zida yolg'on gapiradi, aldaydi. Lekin bu narsaga hech qachon ota-ona o'zini ayblamaydi aksincha farzandini koyiydi.

Ingliz filasofi DJ.Lokkning fikriga ko'ra "bolaning qalbi nimani xohlasa yozish mumkin bo'lgan oq qog'ozga o'xshaydi" bu oppoq qog'ozni yaxshi narsalar bilan ham yomon narsalar bilan ham to'ldirish ota-onaga bog'liq. Bola tarbiyasida ota-ona birdek mas'uliyatga ega bo'lishi lozim. Faqatgina ona yoki ota tarbiyasi bola tarbiyasining shakllanishida noto'g'ri tasir ko'rsatishi ham mumkin.

Hozirgi kunda ajralishlar soni keskin ko'payib ketgan bu hol bola tarbiyasiga ham tasir ko'rsatmay qolmaydi. Oilada yolg'iz ona farzandini tarbiyalasa yoki ota yolg'iz tarbiyalasa, atrofdagi munosabatlar bolada ota-onaga nisbattan ishonchsizlik, nafrat tuyg'ularini shakllantiradi. Natijada bolaning ko'ziga go'yoki uni hech kim tushunmaydiganidek o'zini yolg'iz his etadi. Barcha odamlarga nisbattan nafrat tuyg'ulari shakllanib boradi. Kattalar bilan bo'ladigan muloqoti tufayli bola atrof hayot haqida ko'proq ma'lumot oladi.

Kanadalik psixolog A.Banduraning fikricha, bola ilk davrlaridagi shaxsiy muvaffaqiyatlari o'zining boshqalar kutayotgandek tutishiga tayyorligiga bog'liq. U ota-onasi kutayotgandek va unga qoniqish keltiradigan harakatlarni amalga oshirib boshlaydi va boshqalarnikidek harakatlanishni boshlaydi. Bola o'zi uchun ideal inson qilib o'zgalarni emas ota-onasini ideal inson sifatida ko'rish kerak.

XULOSA

Avvalambor bola tarbiyasida oila mustaxkamligi birinchi o'rinda turadi. Onamiz bizni odobli, tartib-intizomli, mehribon, ozodalikka rioya qiladigan, kattalar va kichiklarga hurmatda bo'ladigan qilib tarbiyalasa, otamiz esa bizni mas'uliyatli, qat'iyatli, kuchli, o'ziga ishonadigan, sabr-bardoshli qilib tarbiyalaydi. Bola boshqa muhitga tushib qolganida kattalarga hurmati, dunyoqarashi, har qanday vaziyatda o'zini tuta ola bilishi oilada ko'rgan tarbiyasini yuzaga keltirib chiqaradi. Albatta bola tarbiyasining shakllanishida ota – ona asosiy rolda bo'lishi lozim. Bolaning hayotdagi eng birinchi ustoz bu uning ota-onasi, oilasi bo'ladi. Oiladagi muhit qanchalik yaxshi bo'lsa bolaning xulq-atvori, boshqalar oldida o'zini tutishi, odobi yaxshi shakllanib boradi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, haddan tashqari qattiq qo'llik qilmasdan yaxshi yo'l bilan tushuntirsa va bu ish noto'g'ri ekanligini ta'kidlasa bola boshqa bu ishni takrorlamaydi. O'zbek xalqi juda ham bolajon xalq bo'lib, bolaning tarbiyasiga alohida e'tabor qaratadi, o'qib bilim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilganiga

guvoh bo'lishimiz mumkin. Kelajak avlodni barkamol ablid bo'lib ulg'ayishida oila muhiti, ota-onalarning pedagogikpsixologik bilimlarini yetarli bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Бекова.Ш.Ж Мактабгача ёшдаги болаларда шахслараро муносабатга киришишнинг психологик жиҳатлари. //Аҳолининг психологик саломатлигижамият фаровонлигини таъминлашнинг муҳим омили сифатида Халқаро имий– амалий анжуман// Фарғона, 2020 . Б.201 – 203.
2. Muhammedova D.G`, Mullaboyeva.N.M, Rasulov.A.I. "Umumiy psixalogiya" Toshkent-2017.
3. 4.Zakirovich, Djumanov Sherali. "TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2022): 543-545.
4. Djumanov Sh.Z. Talabalarni kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish va kasbiy muomala jarayoniga tayyorlash. *Ўзбекистонда психологияни ривожлантириши муаммолари: назария ва амалиёт уйғунлиги*, 112-115.
5. Internet materiallari